

## **BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARNI TEXNOLOGIYA DARSLARIDA TEXNIK IJODKORLIGINI, QOBILIYATI VA TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH**

*Tursunova Nozima Ilxomovna,*

*Buxoro davlat pedagogika institute Boshlang‘ich ta‘lim kafedrasida o‘qituvchisi*

*<https://orcid.org/my-orcid?orcid=0009-0001-1808-0163&justRegistered=true>*

*<https://doi.org/10.53885/edinres.2024.2.2.054>*

*Annotatsiya: Maqolada o‘quvchilarni texnologiya darslarida texnik ijodkorligini, qobiliyatini, tafakkurini rivojlantirish dars jarayonida turli va tabiiy hamda metal va metalmas materiallarga texnologiya asosida ishlov berish usullarini o‘rgatish orqali kasb-hunar yanada kuchaytirishga yo‘naltirishni yanada kuchaytirish, elektrotexnika ishlarini bajarishda kasb-hunarga yo‘llash bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarni egallash hamda ularni hayotda qo‘llay olish layoqatini shakllantirish ko‘zda tutiladi.*

*Kalit so‘zlar: texnik ijodkorlik, kasb-hunar, texnologiya, ob‘yekt, texnologik jarayon.*

## **РАЗВИТИЕ ТЕХНИЧЕСКОГО ТВОРЧЕСТВА, СПОСОБНОСТЕЙ И МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА УРОКАХ ТЕХНОЛОГИИ**

*Турсунова Нозима Ильхомовна,*

*Бухарский государственный педагогический институт*

*Преподаватель кафедры начального образования*

*Аннотация: Статья направлена на развитие у учеников технического творчества, умений, мышления на занятиях по технологии, усиление их профессиональной направленности на занятиях путем обучения их обработке различных и природных и металлических и неметаллических материалов на технологической основе, предназначен для приобретения знаний, умений и навыков для применения их в жизни.*

*Ключевые слова: техническое творчество, профессия, технология, объект, технологический процесс.*

## **DEVELOPMENT OF TECHNICAL CREATIVITY, ABILITY AND THINKING OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS IN TECHNOLOGY CLASSES**

*Tursunova Nozima Ilxomovna,*

*Bukhara State Pedagogical Institute*

*Teacher of the primary education department*

*Abstract: The article is aimed at developing students' technical creativity, skills, thinking in the classroom on technology, strengthening their professional orientation in the classroom by teaching them the processing of various natural and metallic and non-metallic materials on a technological basis, is intended to acquire knowledge, skills and abilities to apply them in life.*

*Key words: technical creativity, profession, technology, object, technological process.*

*Kirish. Ma‘lumki, har qaysi davlat, har qaysi millat avvalo o‘z farzandlari qiyofasida, unib-o‘tib kelayotgan yosh avlod timsolida shu xalqqa xos xususiyat va fazilatlarini namoyon etadigan, uning azaliy orzu-intilishlarini ro‘yobga chiqaradigan buyuk kuchni ko‘radi. Ma‘naviy va jismoniy barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasi biz uchun umummilliy, umumdavlat miqyosidagi vazifa bo‘lib, bu ezgu maqsad yo‘lida amalga oshirilayotgan ishlarimizni izchil va qat‘iyatlik bilan davom ettirish bugungi siyosatimizning diqqat markazida turibdi.*

*Yurtimizda oilaga jamiyatning asosiy negizi sifatida qaralib, sog‘lom oila muhitini yaratish, ona va bola salomatligini muhofaza qilish, sog‘lom avlodni shakllantirish borasida juda ko‘p xayrli ishlar amalga oshirilgan va oshirilmoqda. Jumladan, davlatimiz tomonidan sog‘lom avlodni shakllantirish, ona va bola salomatligini muhofaza qilish, sog‘lom bola tug‘ilishi, jismoniy va ma‘naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator qaror va dasturlar qabul qilinib, hayotga tatbiq etilmoqda. Mustaqillikka erishganimizdan buyon*

Yurtboshimizning tashabbuslari bilan oila mustahkamligi va farovonligiga dolzarb masala sifatida qaralib, yillarga 'Oila', 'Ona va bola', 'Sog'lom avlod', 'Yoshlar' va 'Barkamol avlod yili' degan nomlar berilib, maxsus dasturlar qabul qilinyapti.

O'quvchilarni ma'naviy dunyosini boyitish, borliqni idrok etishda uning yaxlitligi, takrorlanmasligi va uyg'unligini anglash, hayotiy tasavvurini amaliy faoliyatida ifodalash orqali tafakkurini o'stirish, ijodkorlikni rivojlantirish, innovatsion g'oyalarni yaratish hamda kundalik hayotga tatbiq etishga o'rgatish amaliy fanlar blok-moduli orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, o'quvchilarni ma'naviy, badiiy, axloqiy madaniyatini rivojlantirib, ijodiy mahorat, badiiy-estetik didini o'stirishda, kasb-hunarga yo'naltirish bilan birga, jismonan baquvvat bo'lib, sog'lom turmush tarziga amal qilish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va harbiy xizmatga tayyorlash, hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish Amaliy fanlar tarkibida olib boriladi. Hozirgi kunda yangiliklar, yuqori texnikaviy-texnologik innovatsiyalar, ma'lumotlar oqimining o'sib borishi hayotning barcha jabhalarida to'rtinchi texnologik inqilobni yuzaga keltirmoqda. Shaxsning qiziqishlari va jamiyatning talablari o'zgarimoqda.

Texnologiya darslarida o'quvchilarning texnik ijodkorligini, qobiliyatini, tafakkurini rivojlantirish, dars jarayonida tabiiy va suniy hamda metall va metallmas materiallarga texnologiya asosida ishlov berish usullarini o'rgatish orqali kasb-hunarga yo'naltirish, xalq hunarmandchiligi asoslari, ro'zg'orshunoslik, elektrotexnika ishlarini bajarishda kasb-hunarga yo'llash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni egallash hamda ularni hayotda qo'llay olish layoqatini shakllantirish ko'zda tutilgan.

O'quvchilarning texnik ijodkorligi oldingi vaqtlarda individual xarakterga ega bo'lgan. Maktabdan tashqari ishlar, texnik ijodkorlik to'garaklari umuman bo'lmagan. O'quvchilarni qiziqtirgan ijodiy faoliyat turlari bilan o'z xohish irodasi bilan uyda shug'ullanganlar. O'smirlarning texnik ijodkorligi faoliyati bilan shug'ullanishni boshlanishi sobiq ittifoq tuzumi davriga mos keladi. O'quvchi va yoshlar texnik ijodkorlik faoliyatini quyidagi bosqichlarga ajratish mumkin. Birinchi (1920 yil) mehnat maktabini paydo bo'lishi, yoshlarni pioner tashkilotini tashkil qilinishi (1923 yil) mamlakatni industrilashtirish. Ilmiy texnik taraqqiyotni ommaviy tashviqot qilish (1926 yil) asosida maktabdan tashqari ishlarni tashkil qilishning yangi shakllarini topish (1932 yil) ulug' vatan urushi boshlanishi yillarida o'quvchilarning zaruriy ishlab chiqarish ko'nikmalarini egallash davri; Ulug' vatan urushining oxirgi yillarida ko'p ishlab chiqarish ustaxonalarini qisqartirish; Politexnik ta'lim va o'quv ustaxonalarini tashkil qilinishi texnika bo'yicha maktabdan tashqari ishlarni tashkil qilinishga sabab bo'ladi. Xalq ta'limini rivojlantirish va maktab bilan hayotni o'zaro aloqasini mustahkamlashga qaratilgan qonun asosida yanada takomillashtirildi. (1960 yillari) o'quvchilarning ixtirochilik va ratsionalizatorlik bo'yicha maktab va maktabdan tashqari tashkilotlarning ko'rigi o'tkazilishi munosabati bilan (1967 yil) yoshlarning ilmiy-texnik ijodkorligi ko'riklarida ishtirok etish (1975 yil) yoshlarning ilmiy - texnikaviy ijodkorligining yagona davlat tizimining paydo bo'lishi (1980 yil) bosqichlari mavjud.

O'quvchilarning texnik ijodkorligini tashkiliy tizimi juda ko'p qirrali. Hozirgi kunda bolalar va yoshlar ijodiy faoliyati bilan har xil vazirliklar xalq ta'limi xodimlari, kasaba uyushmasi, Kamolot jamg'armasi, Vatanparvar tashkiloti va boshqalar shug'ullanadilar. Bolalar va yoshlarning ommaviy ravishda ijodiy faoliyat bilan shug'ullanishida umumiy o'rta ta'lim maktabi, akademik litsey, kasb-hunar kollejlari, markazlar va maktabdan tashqari muassasalar (yosh texniklar markazi, uylari, o'quvchilar markazlari, yosh texniklar klubi, madaniyat markazi, madaniyat va texnika markazi) shug'ullanadi.

Bizning asrimiz fan-texnika yutuqlarining mislsiz darajada taraqqiy etishi, hamda bu taraqqiyot natijalarining oddiy insonlar hayotiga juda qisqa muddatlarda keng kirib kelayotganligi bilan tavsiflanadi. Mana shunday taraqqiyot omillaridan biri bu shubhasiz yangi axborot texnologiyalaridir. Bugungi kunda hayotimizning hech bir sohasini, jumladan ta'lim tizimini ham yangi axborot texnologiyalari hamda uning asosi bo'lgan kompyuterlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash va yangi axborotni yaratish bilan shug'ullanuvchi texnologiyalarni kompyuterlar asosida joriy etish, ya'ni belgilangan faoliyat turini amalga oshiruvchi kompyuter va unda joriy etilgan dasturiy ta'minotni yuritish majmuasi yangi axborot texnologiyasi deb yuritiladi. Axborotlar davri hisoblangan bugungi kunda tarixda birinchi marotaba insoniyat faoliyatining ko'plab sohalari moddiy buyumlar bilan emas, balki axborotlarni qayta ishlash bilan bog'liq bo'lmoqda. Shu sababli, bugungi kunda yoshlarni axborot davrida yashash va ishlashga o'rgatish, ularda axborotlarni yig'ish, tartib va tahlil qilish, uni uzatish ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bular o'z navbatida, o'quvchilarning ko'plab qobiliyatlarini, shu jumladan, ijodkorlik qobiliyatlarini

rivojlantirishda ham muhim asos vazifasini o'taydi, chunki har qanday yangi g'oyani taklif qilishdan ilgari qaralayotgan sohani batafsil o'rganib chiqish, yangi axborotlarni topish va uni tavsiya etilayotgan yechim bilan bog'lashni o'rganish lozim bo'ladi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun bo'lsa, albatta oddiy inson xotirasida saqlab bo'lmaydigan darajada katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash talab etiladi. YAAT imkoniyatlari ushbu muammoni avtomatlashgan o'quv-axborot tizimlari, bilimlar banki va ma'lumotlar banklari vositasida oson va samarali hal qilish imkoniyatlarini yaratadi. Shu munosabat bilan keyingi paytda respublikamizda bu sohaga e'tibor kuchayib bormoqda, keyingi besh yil mobaynida mavjud kompyuterlar parki bo'yicha vatanimiz jahon ko'rsatgichlariga yaqinlashib qoldi. Biroq, ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnikalarini, jumladan shaxsiy kompyuterlarning qo'llanishi uchun zarur nazariy va amaliy, ilmiy-uslubiy asoslarning ishlab chiqilmaganligi ayniqsa ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish bilan bog'liq qator muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Texnik ijodkorlikni amalga oshirishda kompyuterlarni qo'llashning shakl va usullarini belgilashda, avvalo ular yordamida o'quvchilarning ijod qilishni emas, balki yangi texnik yechimni yaratishdagi axborotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishi va uni amalga oshirishning samarali yo'llarini ishlab chiqishda foydalanishini e'tiborga olish lozim.

Texnik ijodkorligining mazmuni o'quvchilarning yoshlariga qarab tanlanadi. I-IV elementar bilimlarga, V-IX sinflar asosiy chuqur texnik tayyorgarlikka ega bo'lgan bilimlar shakllantiriladi. Egallangan bilimlar va asosiy ko'nikmalariga tayangan holda o'quvchilarning texnik ijodkorligi mazmuni kengayib boradi. Kasb-hunar kollejlarda o'quvchilar tanlagan kasbi bo'yicha ixtirochilik va ratsionalizatorlik faoliyatlarida ishtirok etadilar. Bunda ular texnik, texnologiya, ishlab chiqarishni tashkil qilish bo'yicha ilmiy tekshirish, konstruktorlik ishlarni amalga oshirishda xizmat qiladilar.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida texnologiya o'quv fanini o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda texnik-texnologik hamda texnologik jarayon davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo'llash, kasb-hunarga yo'naltirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish layoqatlarini shakllantirishdan iborat.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida texnologiya o'quv fanini o'qitishning asosiy vazifalari: -materiallar va ularning xossalari, xususiyatlari hamda texnik ob'yekt va texnologik jarayonlarga oid ma'lumotlarni o'rganish;

- texnik obekt hamda texnologik jarayonlarda maxsus va umummehnat operatsiyalarini bilish;
- texnik va kreativ fikrlashni, intellektual qobiliyatlarini shakllantirish;
- texnologik jarayon va tayyorlangan mahsulotlarni bajarish ketma-ketligi hamda mahsulot sifatini tahlil qila olish;
- jarayonlarni bajarilishiga oid xulosalar chiqarish hamda mehnat operatsiyalarini, mahsulot sifatini baholay olish;

kasb tanlashga yo'naltirishdan iborat.

Boshlang'ich sinfda 'Texnologiya' fanining ta'lim sohasi quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi: bolalarda mehnatga mehr va odatlarni singdirish, unda ishtirok etish jarayonidan zavqlanish va uning natijalaridan qoniqish hissini rivojlantirish, mehnat faoliyati haqida tushuncha beradi. Mehnatning kishilar hayotida tutgan o'rni, kundalik turmushda qo'llaniladigan materiallar va qo'l asboblari bilan tanishtirish, hunarmandchilik malakalarini egallashdir.

Shuningdek, o'quvchilarda aniqlik, tejamkorlik, mehnatsevarlik ko'nikmalarini shakllantirish muhim hisoblanadi. O'qitish natijasi mehnatga umumiy ijobiy munosabat, ish haqidagi asosiy bilim va elementar mehnat ko'nikmalarini shakllantiradi.

Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish quyidagi prinsiplar asosida amalga oshirilishi mumkin: -ijodiy faoliyat uchun motivatsiyani rivojlantirish printsiipi;

- o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini tarbiyalash ko'nikmalarini rivojlantirish tamoyili;
- ijodiy faoliyatning ustuvorligi tamoyili; -pedagogik jarayon va o'quvchilarning individual xususiyatlarini uyg'unlashtirish printsiipi;
- o'quvchilarning mustaqilligi va ijodkorligini ta'minlaydigan ta'lim shakllarini tanlash printsiipidir.

O'quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini ochish uchun aynan mana shu fazilatlarini rivojlantirish zarur. Masalan, 'Dizayn asoslari' mavzusini o'rganishda talabalarning ijodiy qobiliyatlarini, tafakkurini rivojlantirish uchun eng yaxshi sharoitlar yaratilishi kerak. Dizayn ishlarini bajarishda maktab o'quvchilari

o'z tajribalariga ko'ra, g'oyaning paydo bo'lishidan to uni amalga oshirish va amalda qo'llashgacha bo'lgan mahsulotning hayotda aylanishi haqida tasavvurga ega bo'lishlari kerak. Loyihalashda o'quvchilar nostandart vazifalarni hal qilishda tajriba orttirishadi. Loyiha mavzusini tanlash va uni yakunlash orqali o'quvchilar ilgari olingan bilim va ko'nikmalarni qo'llash doirasini topadilar, o'z qobiliyatlarini amalga oshiradilar, tashabbus ko'rsatadilar. Loyiha usuli nafaqat shaxsning harakatsiz ijodiy moyilligini 'uyg'otish', balki ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratish imkonini beradi.

Axborotlarni qabul qilish, qayta ishlash va yangi axborotni yaratish bilan shug'ullanuvchi texnologiyalarni kompyuterlar asosida joriy etish, ya'ni belgilangan faoliyat turini amalga oshiruvchi kompyuter va unda joriy etilgan dasturiy ta'minotni yuritish majmuasi yangi axborot texnologiyasi deb yuritiladi. Axborotlar davri hisoblangan bugungi kunda tarixda birinchi marotaba insoniyat faoliyatining ko'plab sohalari moddiy buyumlar bilan emas, balki axborotlarni qayta ishlash bilan bog'liq bo'lmoqda. Shu sababli, bugungi kunda yoshlarni axborot davrida yashash va ishlashga o'rgatish, ularda axborotlarni yig'ish, tartib va tahlil qilish, uni uzatish ko'nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bular o'z navbatida, o'quvchilarning ko'plab qobiliyatlarini, shu jumladan, ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda ham muhim asos vazifasini o'taydi, chunki har qanday yangi g'oyani taklif qilishdan ilgari qaralayotgan sohani batafsil o'rganib chiqish, yangi axborotlarni topish va uni tavsiya etilayotgan yechim bilan bog'lashni o'rganish lozim bo'ladi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun bo'lsa, albatta oddiy inson xotirasida saqlab bo'lmaydigan darajada katta hajmdagi axborotlarni qayta ishlash talab etiladi. Yangi axborot texnologiya imkoniyatlari ushbu muammoni avtomatlashgan o'quv-axborot tizimlari, bilimlar banki va ma'lumotlar banklari vositasida oson va samarali hal qilish imkoniyatlarini yaratadi. Shu munosabat bilan keyingi paytda respublikamizda bu sohaga e'tibor kuchayib bormoqda, keyingi besh yil mobaynida mavjud kompyuterlar parki bo'yicha vatanimiz jahon ko'rsatgichlariga yaqinlashib qoldi. Biroq, ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnikalarini, jumladan shaxsiy kompyuterlarning qo'llanishi uchun zarur nazariy va amaliy, ilmiy-uslubiy asoslarning ishlab chiqilmaganligi ayniqsa ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish bilan bog'liq qator muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Texnik ijodkorlikni amalga oshirishda kompyuterlarni qo'llashning shakl va usullarini belgilashda, avvalo ular yordamida o'quvchilarning ijod qilishni emas, balki yangi texnik yechimni yaratishdagi axborotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishi va uni amalga oshirishning samarali yo'llarini ishlab chiqishda foydalanishini e'tiborga olish lozim.

Shundan xulosa qilib kerakki ijodkorlikni, qobiliyatni, tafakkurni rivojlantirish zamonaviy jamiyatda shaxsni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan komponent hisoblanadi.

O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish bevosita o'qituvchining ijodiy faoliyati bilan bog'liq hisoblanadi.

Texnologiya darslarida o'quvchilarning texnik ijodkorligini tafakkurini salohiyatini rivojlantirish va ro'yobga chiqarish, badiiy hunarmandchilikning shaxs kamolotiga ta'siri deb bilamiz.